

SO‘Z TURKUMLARINING SINTAKTIK XUSUSIYATLARI

Fayzullayeva Mohinur Nodirjon qizi

Samarqand davlat universiteti

E- mail fayzullayevamohinur683@gmail.com

Annotatsiya: Ma’lumki, grammatikaning morfologiya va sintaksis bo‘limlari bir-biri bilan doim uzviy bog‘liq. Ushbu maqolada so‘z turkumlarining sintaktik xususiyatlari tahlil qilinadi, birlamchi va ikkilamchi funksiyalari farqlanadi.

Kalit so‘zlar: so‘z turkumlari, sintaksis, birlamchi funksiya, ikkilamchi funksiya, gap bo‘lagi.

SYNTACTIC FEATURES OF WORD GROUPS

Abstract: As is known that the morphology and syntax sections of grammar are always connected with each other. In this article, syntactic features of word groups are analyzed, primary and secondary functions are distinguished.

Key words: word groups, syntax, primary function, secondary function, part of speech.

So‘z turkumlarining sintaktik xususiyatlari haqida so‘z ketganda, eng avvalo, morfologiya va sintaksis bo‘limlari o‘rtasidagi aloqaga to‘xtalish joiz. Zero, til birligi bo‘lgan har qanday so‘zning imkoniyatlari ma’lum bir sintaktik munosabatlarda yanada yaqqol namoyon bo‘ladi. So‘z nutqda boshqa so‘z bilan munosabatga kirishib, grammatik jihatdan shakllangan bo‘ladi, birikishda ma’lum formaga kiradi, til va so‘z birikmalarining materiali so‘z ekanligi tilshunos olimlarimiz tomonidan yillar davomida uqtirib kelinmoqda.

Morfologiya bilan sintaksis bir-biri bilan uzviy bog‘liqdir. Grammatikada bu ikki bo‘limning yaqin munosabati juda ko‘p hodisalarda sezilib turadi: a)ularning obyektlari yaqin va aloqador; b)so‘zlarning Grammatik kategoriyalari ,so‘z turkumlari bilan gap bo‘laklari orasida bog‘lanish bor,gap va so‘zning aloqasi sintaksis bilan morfologiyaning aloqasini ko‘rsatadi; v)gapda so‘zlarning bog‘lanisg usullari va bog‘lovchi shakllari so‘zning formal, morfologik o‘zgarishi bilan bog‘liq; g)so‘zning formasi uning boshqa so‘z bilan birikishidan darak beradi,shu birikmaning xarakterini ko‘rsatadi.[5.233]

So‘z turkumlarining sintaktik xususiyatlari haqida gap ketganda,ularning biron-bir gap bo‘lagi bo‘la olish yoki bo‘la olmaslik jihatiga alohida ahamiyatga molik. Xususan, bu jihatdan so‘z turkumlarini quyidagicha tasniflash mumkin:

a)gap bo‘lagi vazifasida kela oladigan so‘z turkumlari:fe‘l, ot, sifat, son ,ravish, taqlid, olmosh;

b)gap bo‘lagi vazifasida kela olmaydigan so‘z turkumlari: undov, modal,so‘z-gap;

d)sintaktik aloqa vositasi bo‘lishga xoslangan so‘zlar:ko‘makchi, bog‘lovchi, yuklama.

So‘z-gap biror so‘z bilan sintaktik munosabatga kirishmaydi,alohida o‘zi mustaqil gap bo‘lib kelish qobiliyatiga ega. Modal so‘zlar gapda sintaktik aloqaga kirishmaydi.Undovlar o‘zi alohida sintaktik bog‘lanishda vazifa bajara olmaydi, egalik, kelishik qo‘shimchalari bilan turlangandagina(substantivatsiya hodisasida) biror gap bo‘lagi vazifasini bajarishi mumkin. Yordamchi so‘zlar bog‘lanish xususiyatiga ega , ammo alohida gap bo‘lagi vazifasini bajara olmaydi, balki sintaktik jihatdan o‘zidan oldingi so‘z yoki gapni ikkinchi so‘z yoki gapga bog‘lash vazifasini bajaradi.

Quyidagi jadvalda gapda sintaktik munosabatga kirisha oladigan, biror gap bo‘lagi vazifasida kela oladigan so‘z turkumlari sintaktik fuksiyasiga ko‘ra tasnif qilingan.

№	So‘z turkumi	Sintaktik funksiyasi	Misol
1	Fe‘l	Ega	<i>Ishlash doimo foydali.</i>
		Kesim	<i>Prorabga tushuntirdim, uchastka boshlig‘iga iltimos qildim, o‘zining qabuliga kirdim.</i>
		Aniqllovchi	<i>Nega endi o‘zingga ravo ko‘rmagan narsani o‘zgalarga ravo ko‘rasan.</i>
		To‘ldiruvchi	<i>Keyin nimaga institutdan ketganim, nega qurilishga kelganimni o‘ylayman.</i>
		Hol	<i>Shavkat Qudratovich ko‘zoynagini yaltiratib chaqchaydi.</i>
2	Ot	Ega	<i>Ko‘chadan dam-badam mashina o‘tib turganiga qaramay, ikkita toshdan “darvoza” yasab olgan bolalar koptok tepyapti.</i>
		Kesim	<i>Uning beshik to‘yisiyam gardanimda!</i>
		To‘ldiruvchi	<i>Oqsoqol oyog‘ini tortmadi, ammo Zuhra kelinga qaramadi ham.</i>
		Aniqllovchi	<i>Temir irodali bu ayolning ruhi tushmabdi.</i>
		Hol	<i>Ko‘chamizga yetib kelganimda hali yorug‘ edi.</i>
3	Sifat	Ega	<i>Yaxshi yeydi oshin, yomon – boshin.</i>
		Kesim	<i>Yolg‘onchi kishi har kim qoshida beobro‘dir.</i>
		Aniqllovchi	<i>Tip-tiniq osmonda oftob charaqlab turar, ammo havo shunaqangi sovuq ediki, og‘zingdan chiqqan hovur ham yaxlab qolgandek.</i>
		To‘ldiruvchi	<i>Esimda bor: birinchi kunlari nemis bizga o‘xshagan soddalarni tutdek to‘kdi.</i>
		Hol	<i>Yil natijalari yomon bo‘lmadi.</i>
4	Son	Ega	<i>Qishloqni “to‘rtinchi”lar egallab olibdi, dedi yigit.</i>
		Kesim	<i>Berishda sanog‘i-to‘qqiz, olishda sanog‘i-o‘ttiz.</i>
		Aniqllovchi	<i>Hotam sho‘ro o‘nta otni tablaga tortib qo‘ygan ekan.</i>
		To‘ldiruvchi	<i>Men kambag‘alga birni bersam, xudo menga mingni beradi.</i>
		Hol	<i>Jononga bordim bir kecha, bir-bir bosib astogina...</i>
5	Ravish	Ega	<i>Ko‘pi ketib, ozi qoldi.</i>
		Kesim	<i>Soyda tosh ko‘p, terib chiqaverasan.</i>
		Aniqllovchi	<i>Institutda o‘tkazilgan ochiq eshiklar kunida.....</i>
		To‘ldiruvchi	<i>Yoshi ulug‘ Nazarali ota shu yerda</i>
		Hol	<i>Avval o‘yla, keyin so‘yla.</i>
‘6	Taqlid	Taqlid so‘z doim ot va fe‘lga xos sintaktik vazifalarni bajaradi.	<i>Birdan “shivir-shivir” kuchaydi, kimdir ma‘nodor yo‘talib ham qo‘ydi.</i>
7	Olmosh	Bu so‘z turkumi uchun sintaktik funksiya tushunchasini tatbiq qilib bo‘lmaydi, chunki u turkiy tillarda ot, sifat, son, ravish xarakteriga ega ishoraviy so‘z bo‘lib, gapda ana shu so‘z turkumlarining vazifasini bajaradi	

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, har bir so‘z turkumi birdan ortiq sintaktik funksiyani bajara oladi. Lekin bu sintaktik funksiyalardan ma’lum bir bittasi har bir so‘z turkumi uchun asosiy(dominanta) funksiya hisoblanadi. Professor J.Eltazarov “So‘z turkumlari paradigmasidagi o‘zaro aloqa hamda ko‘chish hollari” monografiyasida bu holatga “So‘zga xos bo‘lgan barcha funksiyalar maxsus iyerarxik tizimni tashkil qiladilar va so‘z turkumlarining har bir a‘zosi kontekstda turli ikkilamchi sintaktik vazifani bajarishi mumkin. So‘zning asosiy shakliga birlamchi funksiya,ko‘chma shakliga ikkilamchi funksiya mos keladi” deb ta’rif beradi.[1.114] Bu ta’rif so‘z turkumlari paradigmasidagi asosiy to‘rtta so‘z turkumlariga asosiy to‘rtta gap bo‘lagi mutanosib keladi: otning predmetlik xususiyatiga kesim ifodalovchi subyekt-predmet va to‘ldiruvchi ifodalovchi obyekt-predmet bilan, fe’l anglatuvchi harakat-holat tushunchasi kesim ifodalovchi predikativlik bilan, sifat anglatuvchi belgi tushunchasi aaniqlovchi ifodalovchi atributivlik bilan, ravish anglatuvchi harakatning belgisi (belgining belgisi)tushunchasi hol anglatuvchi atributivlik mos kelishi ana shu sintaktik pozitsiyalar bu so‘z turkumlari uchun asosiy sintaktik funksiya degan xulosaga olib keladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. Eltazarov J., So‘z turkumlari paradigmasidagi o‘zaro aloqa hamda ko‘chish hollari.- Toshkent,2006.
2. Sayfullayeva R.,Mengliyev B., Boqiyeva G. Va boshq. Hozirgi o‘zbek adabiy tili.- Toshkent,2009.
3. Tojiyev Y., O‘zbek tili morfologiyasi tadqiqi tarixidan. Zamonaviy o‘zbek tili. Morfologiya.- Toshkent,2008.
4. Shahobiddinova Sh. Umumiylik va xususiylik dialektikasi talqinida.I qism.- Andijon,1994.
5. Sharipov F., O‘zbek zamonaviy morfologiyasida so‘z turkumlari tasnifining takomillashishi//Academic Research in Educational Sciences. –Toshkent, 2022.